

Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi

Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: khabibullayeva0811@gmail.com

**BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI
TARBIYACHI-PEDAGOGLARIDA KASBIY MA’NAVIY MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA USULLARI**

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma’naviy madaniyatni shakllantirishning mazmuni, ahamiyati, shakl va usullari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta’lim bosqichi bolalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasining poydevori sifatida e’tirof etilib, bu jarayonda tarbiyachining kasbiy fazilatlari va madaniy saviyasi muhim omil sifatida ko‘rsatilgan. Tadqiqotda pedagog shaxsida ma’naviyat asoslarini, axloqiy-etik me’yorlarni va amaliy faoliyatda bu qadriyatlarni qo‘llash imkoniyatlarini shakllantirishning samarali usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy ma’naviy madaniyat, bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglar, maktabgacha ta’lim, pedagogik etika, ma’naviy-axloqiy tarbiya, shaxsiy fazilatlar, pedagogik kompetensiya, interaktiv metodlar, refleksiya.

Хабибуллаева Сайёрахон Махамадали кизи

докторант 2-курса Наманганского государственного университета

**СОДЕРЖАНИЕ, ФОРМЫ И МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ
БУДУЩИХ ПЕДАГОГ-ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ**

Аннотация: В данной статье анализируются содержание, значение, формы и методы формирования профессиональной духовной культуры у будущих воспитателей дошкольных образовательных организаций. Дошкольный этап образования признаётся основой духовно-нравственного воспитания детей, при этом профессиональные качества и культурный уровень воспитателя рассматриваются как важный фактор в этом процессе. В исследовании раскрываются эффективные способы формирования у педагога основ духовности, нравственно-этических норм и возможности применения этих ценностей в практической деятельности.

Ключевые слова: Профессиональная духовная культура, будущие педагог-воспитатели, дошкольное образование, педагогическая этика, духовно-нравственное воспитание, личностные качества, педагогическая компетентность, интерактивные методы, рефлексия.

Khabibullaeva Sayyorakhon Makhamadali qizi

PhD student of Namangan State University

THE CONTENT, FORMS, AND METHODS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL SPIRITUAL AND MORAL CULTURE OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATION TEACHERS

Annotation: This article analyzes the content, significance, forms, and methods of developing professional spiritual culture in future preschool education institution educators. The preschool stage is recognized as the foundation of children's spiritual and moral upbringing, and in this process, the professional qualities and cultural level of the educator are highlighted as important factors. The study explores effective methods of forming the foundations of spirituality, moral and ethical standards in the personality of the educator, as well as the possibilities of applying these values in practical activities.

Key words: Professional spiritual culture, future educator-pedagogues, preschool education, pedagogical ethics, spiritual and moral upbringing, personal qualities, pedagogical competence, interactive methods, reflection.

Kirish

Maktabgacha ta'lim - bolalarning jamiyatga moslashuvi, ma'naviy va intellektual rivojlanishining dastlabki poydevorini yaratadigan muhim bosqichdir. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyachi-pedagoglari nafaqat bilim va malakaga, balki yuqori darajadagi kasbiy ma'naviy madaniyatga ega bo'lishlari shart. Kasbiy ma'naviy madaniyat tarbiyachi-pedagogning axloqiy qadriyatlari, kasbga bo'lgan munosabati, madaniy-etik me'yorlarga rioya qilishi va o'zini doimiy takomillashtirish istagi bilan belgilanadi. Bu omillar pedagogning kasbiy faoliyatida sifatli va samarali ishlashiga, shuningdek, bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda pedagoglarning kasbiy ma'naviy madaniyatini rivojlantirish masalasi ta'lim sohasining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu bois, mazkur mavzu ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar doirasida chuqur o'rganilishi zarur. Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglari kasbiy ma'naviy madaniyatning mazmuni, shakllari va rivojlantirish usullari tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglari kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirish masalasi ko'plab ilmiy, metodik va nazariy adabiyotlarda pedagog shaxsida axloqiy fazilatlarni shakllantirish, milliy va

umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda kasbiy o'zlikni anglash, tarbiyaviy jarayonda ma'naviyatni amaliy qo'llashga alohida e'tibor qaratilgan.

Ilmiy manbalarda ma'naviyat va ma'rifatning pedagogik faoliyatdagi o'rni, tarbiyachining shaxsiy namunasi, kasbiy etika va axloqiy mezonlarga rioya qilish, professional mas'uliyat hamda tarbiyachi sifatida o'zini doimiy rivojlantirib borish kabi masalalar chuqur yoritilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning qarashlari, zamonaviy pedagogika va psixologiya olimlarining asarlari, shuningdek, milliy dastur va konsepsiyalar asosida yozilgan o'quv-metodik qo'llanmalarda bu boradagi yondashuvlar tizimli tarzda bayon etilgan.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda tarbiyachining mehribonlik, sabr-toqat, halollik, samimiyat, adolat kabi fazilatlarni o'z shaxsiy namunasi orqali ifoda etishi zarurligi ko'plab adabiyotlarda ta'kidlangan. Pedagogik jarayonda etik me'yorlarga rioya qilish, bolaning shaxsini hurmat qilish, ijtimoiy adolat prinsiplariga sodiq qolish tarbiyachi-pedagogning kasbiy ma'naviy madaniyatini belgilovchi muhim omillar sifatida ko'rsatilgan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirish murakkab va bosqichma-bosqich shakllanuvchi jarayon bo'lib, bunda nazariy bilimlar, shaxsiy fazilatlar va amaliy kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak tarbiyachilarni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol va professional shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari kasbiy ma'naviy madaniyatni shakllantirishning samarali shakl va usullarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda tarbiyachilarning axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy va professional fazilatlarini chuqur o'rganish asosida ularning kasbiy-etika qoidalariga amal qilish darajasi, bolalar bilan muloqotda mehr, sabr, mas'uliyat kabi sifatlarni namoyon etish qobiliyati tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar

Kasbiy ma'naviy madaniyat- bu tarbiyachi-pedagogning kasbiy faoliyatida axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar tizimi bo'lib, unda pedagogning shaxsiy fazilatlari, kasbiy bilimlari, kasbiy-etika qoidalariga amal qilishlari, bolalar bilan munosabatdagi mehr-muhabbat va mas'uliyat hissi o'z ifodasini topadi. Bu madaniyat maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachining professional va shaxsiy sifatlarini uyg'unlashtirib, sifatli ta'lim va tarbiya jarayonini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari kasbiy ma'naviy madaniyatini shakllantirish - bu ularning professional faoliyatida yuksak

axloqiy-ruhiy qadriyatlarga tayangan holda, tarbiyaviy jarayonda insonparvarlik, vijdonlilik, adolat va mas'uliyat prinsiplarini uyg'unlashtira olishini anglatadi. Bu madaniyatning rivojlanishi pedagog shaxsining ichki dunyosi, kasbiy qadriyatlar tizimi va ijtimoiy mas'uliyatini chuqur anglashiga asoslanadi. Mazkur jarayon quyidagi asosiy yo'nalishlar doirasida amalga oshiriladi:

1. Ma'naviyat asoslari bo'yicha nazariy bilimlar berish

Kasbiy ma'naviy madaniyatni shakllantirish, eng avvalo, bo'lajak tarbiyachilarda yuksak ma'naviy qarashlarni shakllantirishdan boshlanadi. Bunda ularga:

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlar: Vatanparvarlik, milliy iftixor, ona tiliga hurmat, oila qadriyatlari bilan bir qatorda inson huquqlari, tinchliksevarlik, bag'rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar chuqur o'rgatiladi.
- Buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari: Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Abdulla Avloniy, Mahatma Gandi, Jan-Jak Russo, Lev Tolstoy kabi mutafakkirlarning insonparvarlik, tarbiya va ma'naviyat borasidagi fikrlari orqali pedagogik nuqtai nazar kengaytiriladi.
- Din va ma'rifatning ruhiyatga ta'siri: Dinning inson axloqiy rivojiga, sabr, kechirimlilik, halollik kabi fazilatlarni shakllantirishdagi roli tushuntiriladi. Shu bilan birga, diniy-ma'rifiy bilimlar asosida axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Bu yo'nalish bo'yicha bilimlar berish orqali tarbiyachilar o'z kasbiy faoliyatiga ma'naviy yondashuvni uyg'unlashtirishga o'rganadi.

2. Etik va axloqiy mezonlarni o'rgatish

- Pedagogik faoliyat doirasida muomala madaniyati, kasbiy etika, axloqiy me'yor va qoidalarga rioya qilish bo'yicha tizimli yondashuv talab etiladi. Shu munosabat bilan quyidagilar e'tiborga olinadi:
- Pedagogik etika asoslari: Tarbiyachi o'zining har bir harakati, fikr va xatti-harakatida kasbiga mos bo'lgan odob-axloqni namoyon qilishi lozim. Bu o'z ichiga bolaga, ota-onaga, hamkasblarga va jamiyatga nisbatan madaniy yondashuvni oladi.
- Professional mas'uliyat hissi: Tarbiyachining kasbga nisbatan vijdoniy yondashuvi, ishonchli, fidoyi, mas'uliyatli bo'lishi ta'minlanadi.
- Shaxsiy hurmat va adolat tamoyili: Har bir bolaga individual yondashish, uni qadrlil inson sifatida qabul qilish, diskriminatsiyasiz, betaraflikka asoslangan adolatli munosabatni shakllantirish zarur.

Etik madaniyatni shakllantirish orqali pedagoglar ta'lim-tarbiya jarayonida mustahkam axloqiy asosda faoliyat yuritishga tayyor bo'ladilar.

3. Tarbiyaviy faoliyatda ma'naviyatni amaliy qo'llash

Tarbiyachi-pedagog nafaqat nazariy bilimlar egasi, balki o'z shaxsiy faoliyatida ushbu bilimlarni amalda qo'llay oladigan barkamol shaxs bo'lishi kerak. Amaliy yondashuv quyidagi jihatlar bilan ifodalanadi:

- Mehr-muhabbat va sabr-toqat bilan ishlash: Har bir bolaga mehr bilan yondashish, ularning hissiyotlarini tushunish, sabrli va tinch muhit yaratish tarbiyaviy ishlarning markazida turadi.
- Shaxsiy namuna bo'lish: Tarbiyachi bolalar uchun nafaqat o'rgatuvchi, balki ma'naviy etalon bo'lishi kerak. Uning o'ziga xos xulqi, so'zlari, kiyinish madaniyati, muomala odobi – barchasi bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir qiladi.
- Halollik, samimiyat va mas'uliyat: Tarbiyachi o'z ishiga va bolalarga nisbatan halol va samimiy bo'lishi, topshirilgan vazifalarga vijdonan yondashishi, tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qilishi zarur.

Amaliyotda ma'naviyatni qo'llash tarbiyachining kasbiy qadriyatlari va ichki dunyosining uyg'unligini ifodalaydi.

Kasbiy ma'naviy madaniyat — bu tarbiyachining kasbiy shaxs sifatida ma'naviy-axloqiy mukammalligini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Ushbu madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish bo'lajak pedagoglarning shaxsiy fazilatlarini, jamiyat va bola oldidagi mas'uliyatini chuqur anglashga olib keladi. Bu esa ta'lim sifati, tarbiya samaradorligi va barkamol avlodni voyaga yetkazish kafolatlaridan biridir.

Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy ma'naviy madaniyatni shakllantirishda quyidagi samarali shakl va usullar muhim o'rin tutadi:

- Interaktiv o'quv mashg'ulotlari: kasbiy-axloqiy masalalarni o'rganishda "aqliy hujum", debat, keys-stadi, rolli o'yinlar kabi interaktiv metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, etika va axloqiy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi. Ayniqsa, pedagogik vaziyatlar tahlili orqali to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

- Ma'naviy-ma'rifiy suhbat va seminarlar: pedagogik axloq, madaniy muomala, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mavzularida tashkil etiladigan ochiq suhbatlar, seminarlar va ma'naviyat darslari tarbiyachilarning shaxsiy pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bu jarayonda ular o'z ustida ishlash, ichki mas'uliyat hissi kuchayadi.

- Amaliyot jarayonida kuzatuv va tahlil: pedagogik amaliyot davomida bo'lajak tarbiyachilar malakali mutaxassislarning faoliyatini kuzatish, tahlil qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu usul orqali ular o'zlarining kamchilik va ustunliklarini anglab, kasbiy va ma'naviy jihatdan rivojlanishga intiladilar.

- Refleksiya va o'z-o'zini baholash: bo'lajak pedagoglar o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilish, xatolarini tan olish, xulosa chiqarish va o'zini takomillashtirishga intilishni o'rganadilar. Bu esa ularning ma'naviy o'sishiga xizmat qiladi va o'zini tarbiyalash madaniyatini shakllantiradi.

- Tarbiyaviy tadbirlar va ijodiy loyihalar: tarbiyachilar bolalar bilan birgalikda o'tkazadigan tadbirlar – milliy bayramlar, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari, ekologik yoki axloqiy mavzularga bag'ishlangan loyihalarda faol ishtirok etishi ularning mas'uliyat, tashabbuskorlik va mehr-oqibat kabi fazilatlarini rivojlantiradi.

- Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash: zamonaviy vositalardan foydalanib, tarbiyachilar axloqiy mavzulardagi taqdimotlar, videodarslar, virtual treninglarda ishtirok etish orqali ma'naviy va kasbiy saviyasini oshiradi.

Umuman olganda, kasbiy ma'naviy madaniyatni shakllantirish jarayoni shaxsning ichki dunyosini boyitish, uning axloqiy va professional barkamolligiga erishish yo'lida amalga oshiriladigan murakkab, ammo zarur pedagogik faoliyatdir. Bu yo'nalishdagi izchil ishlar nafaqat shaxsiy sifatlarni, balki jamiyatda sog'lom pedagogik muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa

Xusola qilib shuni aytish mumkinki kasbiy ma'naviy madaniyatga ega bo'lgan tarbiyachi-pedagog — bu faqat bilim va ko'nikmalar emas, balki yuksak axloqiy fazilatlar, ijtimoiy mas'uliyat va ruhiy yetuklik bilan ajralib turadigan shaxsdir. U bolalar tarbiyasida o'zining ijobiy shaxsiy namunasini ko'rsatib, ularni insoniy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazadi. Shuningdek, bunday pedagog jamiyatda pedagog kasbining obro'sini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Ushbu maqolada ko'rsatib o'tilgan yondashuv va metodlar orqali bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy ma'naviy madaniyatning yuqori darajada shakllanishi, ularning kasbiy faoliyatida axloqiy yondashuv, insonparvarlik va shaxsiy mas'uliyatning ustuvor bo'lishiga zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 156 b.
2. Navoiy, A. Mukammal axloqiy meros asarlari. – Toshkent: Fan, 1983. – 304 b.

3. Qodirov, A. Pedagogik etik madaniyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 176 b.
4. Jabborov, Q., Xolboyev, M. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 232 b.
5. Turaqulov, E. Kasbiy kompetensiya va axloqiy qadriyatlar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2018. – 148 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ilm-fan va ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi // Rasmiy hujjatlar to‘plami. – 2019. – № 11. – B. 3–10.